



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2025-YIL YANVAR OYI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz

Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 5 683 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 664 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,7 %i) Farg'ona shahriga, 635 tasi (11,2 %) Qo'qon shahriga, 546 tasi (9,6 %) Marg'ilon shahriga, 449 tasi (7,9%) Uchko'prik tumaniga va 341 tasi (6,0 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2025-yil 1-fevral holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, %da
Jami:	5 683	99	100,0
Farg'ona sh.	664	7	11,7
Qo'qon sh.	635	2	11,2
Quvasoy sh.	157		2,8
Marg'ilon sh.	546	4	9,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	252	2	4,4
Qo'shtepa	237	24	4,2
Bag'dod	267	5	4,7
Buvayda	206	2	3,6
Beshariq	149	2	2,6
Quva	237	3	4,2
Uchko'prik	449	6	7,9
Rishton	289	3	5,1
So'x	166	9	2,9
Toshloq	235	7	4,1
O'zbekiston	341	6	6,0
Farg'ona	192		3,4
Dang'ara	314	2	5,5
Furqat	160	10	2,8
Yozyovon	187	5	3,3



Fargʻona viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari


Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2025-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 667,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi *103,2% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik koʻrsatkichlari oʻsish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oʻsayotganligini koʻrsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 650,2 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.



2025-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 2 419,0 mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,7% ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **5,8 mlrd.** soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ini tashkil etdi.



Yanvar

2023-y	7,7 mlrd. soʻm
2024-y	5,8 mlrd. soʻm
2025-y	5,8 mlrd. soʻm

FHI, %da

2023-y	111,6 %
2024-y	62,1 %
2025-y	51,3 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **2 419,0 mlrd.** soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **90,7 %** ini tashkil etdi.

Yanvar

2023-y.	1 547,8 mlrd. soʻm
2024-y.	1 912,0 mlrd. soʻm
2025-y.	2 419,0 mlrd. soʻm

FHI, %da

2023-y.	87,6 %
2024-y.	110,6 %
2025-y.	103,1 %





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi			Avtomobil benzini			Makaron mahsulotlari		
2025	→	61,5	2025	→	45,8	2025	→	103,3
2024	→	100,6	2024	→	97,0	2024	→	2,5 m.
2023	→	148,7	2023	→	2,7 m.	2023	→	55,8
O'simlik yog'i (tozalangan)			Portlandsement			Yumshoq bug'doy va spelta uni		
2025	→	0	2025	→	33,7	2025	→	112,7
2024	→	76,7	2024	→	153,3	2024	→	72,7
2023	→	47,2	2023	→	17,7	2023	→	85,2
Neft bitumi			Aroq ming litr (100% spirt)			Uzum vinosi		
2025	→	95,2	2025	→	2,8 m.	2025	→	43,5
2024	→	100,0	2024	→	48,6	2024	→	2,2 m.
2023	→	21,0	2023	→	170,4	2023	→	180,2
Yoqilg'i moyi			Paxta chigiti			Paxta linti		
2025	→	75,6	2025	→	93,9	2025	→	109,9
2024	→	4,9 m.	2024	→	152,3	2024	→	153,7
2023	→	58,8	2023	→	65,4	2023	→	89,6

2025-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,8 ming tonna avtomobil benzini (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 45,8%ni tashkil etgan), 20,8 ming tonna dizel yoqilg'isi (61,5%ni), 9 755,7 tonna paxta iplari mahsulotlari (92,5%ni) hamda 2 023,9 mingkv.metr paxtadan tayyorlangan matolar 122,1%ni tashkil etgan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	32,3	14,8	-17,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	22,2	25,0	2,8
Paxta chigiti, ming t.	16,7	15,6	-1,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	7,6	0	-7,6

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,1 % (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,9%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 39,1% (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 94,0 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9% (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,6 % (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,3 %) ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2024-yilning yanvar oyida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,5 % (10,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,2% (20,6%) va quyi texnologiyali – 62,7% (57,9%)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2025-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 17,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 164,1 % ni tashkil etgan.


2024-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 10,9 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,0 %ga koʻpaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,2 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 118,3 %ni ishlab chiqarish hajmi esa 324,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 121,2 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2025-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,3 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 382,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 67,9 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,5 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,3 martaga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 13,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2024-yilning yanvar oyida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,2 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 59,3% ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2025-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,8% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 100,3 %ga o'sgan holda ishlab chiqarish hajmi 900,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,6 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8%, fizik hajm indeksi 64,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 101,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,0 %ni, fizik hajm indeksi esa 125,7 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2025-yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 %ni, fizik hajm indeksi 89,5 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi

158,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 %ni fizik hajm indeksi esa 80,0 %ni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2025-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 4,4 %ni, fizik hajm indeksi 101,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi

116,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 %ni fizik hajm indeksi esa 94,4% ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2025-yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %ni, fizik hajm indeksi 164,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 97,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 %ni fizik hajm indeksi esa 137,2 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,1 %ni, fizik hajm indeksi 127,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 344,3 mlrd. so'mni tashkiletdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %ni fizik hajm indeksi esa 130,8 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %ni, fizik hajm indeksi 77,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 63,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %ni fizik hajm indeksi esa 92,2 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2025-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8%, fizik hajm indeksi 101,0 %ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 47,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 %ni fizik hajm indeksi esa 4,5 marttani tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2025-yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 219,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,2 %ini) tashkil etadi.


2025-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,2 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	32,0	33,5	1,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	148,8	155,1	6,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,8 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	18,4	18,7	0,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,5	5,1	-0,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,7 mlrd. so'm yoki 0,3 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,1 mlrd. so'm va 0,4 martaga kamaygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 564,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 21,2 %ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.soʻm)da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi

2025-yilning yanvar oyida

(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 032,9 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,8 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o‘sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko‘payotganligini bildiradi.

